

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Неъматов, Ж. "Уголовно-правовые проблемы борьбы с организованной преступностью по законодательству Республики Узбекистан." Российская юстиция 8 (2006): 64-66.

SH.V.MULLAYEV¹²⁸

ADVOKATLIK FAOLIYATINI LITSENZIYALASH: MUAMMOLAR, XORIJ TAJRIBASI, QONUNCHILIKKA TAKLIF

Inson huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilinishi nafaqat sud-huquq tizimini isloh qilinishi, balki mamlakatdagi advokatura institutini qanchalik taraqqiy etganligiga bevosita bog'liqdir. Bu kabi vazifa o'z navbatida mazkur soha qonunchiligini zamon talablariga qarab takomillashtirib borish naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Shu o'rinda milliy qonunchilikni xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi bilan qiyosiy o'rganish orqali uning afzallik va kamchiliklarini aniqlash sohani rivojlantirish istiqbollarini chuqurroq anglab yetishga yordam beradi. Advokatura qonunchigini takomillashtirishda qonun loyihalarini xorijiy huquqiy amaliyot bilan har tomonlama chuqur qiyosiy tahlil qilish ularni tayyorlash ishlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Chindan ham advokatura qonunchiligini takomillashtirishda xorijiy davlatlarning mazkur sohadagi qonunchiligini tahlil etish va qiyosiy huquqshunoslikning keng imkoniyatlaridan foydalanish milliy qonunchilikni rivojlantirish istiqbollarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati litsenziyalangan, ya'ni shug'ullanish litsenziya talab qiladigan faoliyat turlari ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ushbu litsenziyaga ega bo'lish o'z navbatida talabgor oldiga bir qator talablarni qo'yadi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, malaka imtixonini muvaffaqiyatli topshirgan talabgorga litsenziya Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan

¹²⁸ Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti 3-bosqich talabasi

tegishli malaka komissiyalarining qarorlari asosida beriladi. Malaka imtihoniga kirishga talabgor o'z navbatida quyidagi talablarga javob berishi lozim bo'ladi: yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lishi, shu jumladan advokatlik tuzilmasida kamida uch oy muddat stajirovka o'tagan bo'lishi kerak hamda malaka imtihonini topshirishi shart. Malak imtihonini muvaffaqiyatli topshira olmagan talabgor uni qayta topshirishiga kamida 6 oydan keyin ruxsat beriladi.

Bir qator talabgorlarga litsenziyaga ega bo'lishda yuqoridagi stajirovka o'tash muddati qo'llanilmaydi, xususan, davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatida, sudya, tergovchi, surishtiruvchi yoki prokuror lavozimida kamida uch yil yuridik mutaxassislik bo'yicha ish stajiga ega bo'lgan shaxs advokatlik tuzilmasida stajirovka o'tamasdan malaka imtihonida ishtirok etishga haqli.

Umuman olganda advokatlik faoliyatini litsenziyalash kerakmi degan savolga javob berishdan oldin ana shu litsenziyani olishga qo'yilgan talablarni chuqur tahlil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyida yuqorida sanab o'tilgan advokatlik litsenziyasiga ega bo'lish uchun qo'yilgan talablardagi noaniqliklar va kamchiliklarga to'xtalib o'tsak.

Birinchidan, yuridik staj tushunchasiga aniq ta'rif berilmagan. Xususan, yuridik staj qachondan boshlab hisoblanishi noaniq qolgan, yani oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgandan keyin ishlangan davrmi yoki yuridik mutaxassislik bo'yicha o'rta-maxsus ma'lumotni olgandan keyin ishlangan davrmi? Chunki amaldagi mehnat qonunchiligiga ko'ra, fuqarolarga 16 yoshdan ishlashga ruxsat etilgan, hamda ish beruvchi oldiga 5 kundan kam bo'lmagan muddatda ishlagan har bir xodim uchun mehnat daftarchasi yuritish majburiyati yuklangan. Bunda kelib chiqadiki agar talabgor oldiga qo'yilgan 2 yillik mehnat stajini o'rta-maxsus ma'lumotga ega bo'lgandan keyin ega bo'lgan bo'lsa, hamda keyinchalik oliy yuridik ma'lumot olsa ham litsenziyaga talabgor sifatida malaka imtihonidan qatnashishi mumkin bo'ladi. Mehnat staji talabi albatta olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalari shakllangan fuqarolargina malaka imtihoniga kirishi kerak degan aspektdan kelib chiqib qo'yilgan. Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish davomida olingan nazariy bilimlar bilan o'rta-maxsus yuridik ma'lumotga ega bo'lish davomida ega bo'lingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash davomida olingan tajribani taqqoslab bo'lmaydi.

Ikkinchidan, talabgordan ham yuridik staj, ham stajirovka talab

qilinishi o'z navbatidan bir qator shaxslar oldiga litsenziyaga ega bo'lishiga sun'iy to'siq bo'lib xizmat qilmoqda. Malaka imtihoniga kirishga qo'yilgan mazkur talab talabgorlarga ma'lum darajada amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish nuqtai nazarida qo'yilgan bo'lib, aslida har ikkala talab ham nazariyani amaliyotda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lishni taqazo etadi. Bundan kelib chiqadiki, talabgor oldiga bir vaqtni o'zida har ikkala talabni qo'yilishi mantiqsizlikdir.

Uchinchidan, 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-son Prezident farmonining 19-maqsadida nazarda tutilgan advokatlik maqomiga ega bo'lish uchun qo'yilgan yuridik staj talabini bekor qilish ham o'z navbatida aholiga malakali yuridik xizmat ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan fuqaro qanchalik bilimli bo'lmasin, ana shu nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashda bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Yuridik stajga ega bo'lmagan fuqarolarning advokatlik litsenziyasiga ega bo'lishi, ishonch bildirgan shaxs (himoya ostidagi shaxs) larga yetarli darajada malakali yuridik yordam ko'rsatilmasligiga, bu esa o'z navbatida ularning huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzilishiga olib kelishi mumkin.

To'rtinchidan, yuridik mutaxassislik bo'yicha 2 yillik mehnat stajiga va belgilangan muddatda stajirovkadan o'tgan talabgor qancha muddatda malaka imtihoni topshirishi belgilab qo'yilmagan. Bundan kelib chiqadiki, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lib, 2 yillik yuridik stajga ega belgilangan tartibda stajirovka o'tagan shaxs istagan vaqtida, masalan, 10-15 yillik uzilishdan so'ng ham malaka imtihonini topshirishi mumkin bo'lib qoladi. Qonunchilik kundan kunga takomillashib, o'zgarib borayotgan bir paytda qancha muddatda ichida malaka imtihonini topshirishni ochiq qoldirilishi malaka imtihoniga yetarli darajada nazariy va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lmagan talabgorlarni ham qatnashishiga olib keladi.

Beshinchidan, malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshira olmagan talabgor uni qayta topshirishiga kamida 6 oydan keyingina ruxsat beriladi, mazkur muddat o'tmasdan malaka imtihonini topshirishga ariza berilishi arizani qaytarilishiga asos bo'ladi. Mazkur holat talabgorlarni oldiga vaqt nuqtai nazaridan sun'iy to'siq yaratadi hamda talabgorlar sonini kamayishiga va O'zbekistondagi advokatlar sonini o'sishiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Oltinchidan, stajirovka o'tashning belgilangan maksimal muddati

ham ma'lum bir ma'noda talabgor oldiga sun'iy to'siq yaratishi mumkin. Stajirovka o'tashdan ko'zlangan maqsad, ya'ni kasbiy ko'nikmalarni qo'lga kiritish kabi mas'uliyatli vazifani hamma har xil muddatda qo'lgan kiritadi. Insonlar tashqi ko'rinishi va jismoniy imkoniyatlari teng bo'lsada intellektual salohiyat, ya'ni ma'lum bir ko'nikmani qo'lga kiritishga ketadigan vaqt hammada o'z mental imkoniyatidan kelib chiqadi. Mazkur talab kam sonli talabgorlarning huquqlarini amalga oshirishiga to'siq bo'lib xizmat qilmoqda.

Yettinchidan, bugungi kunda advokatlik litsenziyasiga ega bo'lish uchun topshiriladigan malaka imtihonini shakllangan tartibi zamon talablariga javob bermaydi. Ya'ni talabgorlar topshiradigan imtihonning test shakli aholiga yetarli darajada malakali yuridik yordamni berishga amaliy va nazariy ko'nikmalarga ega shaxslarni aniqlash imkonini bera olmaydi.

Amaldagi advokatlik faoliyatini litsenziyalash bilan bog'liq qonunchilik hamda shakllangan amaliyotdagi yuqorida sanab o'tilgan tushunmovchilik va kamchiliklarni yechimiga to'xtalishdan avval bu boradagi rivojlangan xorijiy davlatlarning qonunchiligidagi yutuqlari va tajribasiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jumladan, Yaponiyada 2019 yilda qabul qilingan "Advokatlik imtihoni akti" (Bar Examination Act) yuridik kasb egallash uchun milliy imtihon tizimini huquqiy negizlarini belgilab beruvchi hujjat hisoblanadi. Mazkur aktga ko'ra, advokat bo'lish uchun litsenziyaga ega bo'lish, litsenziya esa o'z navbatida ikki bosqichli milliy imtihonni muvaffaqiyatli topshirgan shaxslargagina berilishi ko'zda tutiladi. Milliy imtihonda qatnashish pullik bo'lib uning qiymati Yaponiya hukumati tomonidan belgilanadi. Mazkur imtihonda qatnashish uchun to'langan badallar mazkur imtihonni o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan milliy komissiyaning hisob raqamiga tushib, yig'ilgan mablag'lar komissiya a'zolariga haq to'lash, testlarni sifatli tuzishga malakali mutaxassislarni jalb qilish, imtihonni yaxshi tashkil qilish bilan bog'liq harajatlarga yo'naltiriladi. Mazkur tartib esa o'z navbatida talabgorlardan eng yaxshisini tanlab olish imkonini berish bilan birga yapon bozoriga malakali advokatlarni kiritishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Imtihondan yiqilgan talabgorlarga keyingi imtihonda qatnashishga hech qanday sinov muddati qo'yilmagan bo'lib, bu ham bugungi kunda Yaponiyada advokatlar sonini o'sishiga ijobiy ta'sir o'tkazayotgan omillardan biri sanaladi.

Advokatura instituti rivojlangan, bu borada uzoq tarixiy tajribaga ega davlatlardan biri bu Germaniya hisoblanadi. Germaniyada advokatlik

instituti 1959-yilda qabul qilingan “Advokatura to’g’risida”gi Federal qonun bilan huquqiy tartibga solinadi. Germaniyada advokatlik litsenziyasiga ega bo’lish uchun bir qator talablar qo’yilgan bo’lib, bu talablar sudya bo’lish uchun talabgorlarning oldiga qo’yiladigan shartlar bilan bir xil. Yani advokatlik faoliyati bilan shug’ullanishga sudyalik vazifasini bajarishga loyiq ko’rilgan shaxslargagina ruxsat etiladi. Advokatlik faoliyati bilan shug’ullanishga talabgor shaxs oliy yuridik ma’lumotga ega bo’lishi, Germaniya universitetlaring birida kamida 6 semestr davomida huquq kurslarida ta’lim olishi lozim hisoblanadi. Bundan tashqari talabgorni ikkita imtihon kutadi. Birinchisi, universitetni bitirayotgandagi topshiradigan imtihoni, ya’ni bundan muvaffaqiyatli o’tgan shaxslargina sud va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida, xususan, prokuratura, notariat yoki advokaturada stajirovka o’tashi lozim bo’ladi. Stajorlarning maoshi mahalliy davlat hokimiyati mablag’lari hisobidan qoplanadi. Ikkinchi imtihon, stajirovka o’tagan shaxslardan olinadigan hamda amaliy ko’nikmalarini sinashga qaratilgan amaliy imtihon tizimi bo’lib, mazkur imtihon hududiy adliya boshqarmalari tomonidan olinadi. Hamda yuqorida ta’kidlab o’tilganidek mazkur imtihondan o’tgan shaxs sudya ham, advokat ham bo’lib ishlashi mumkin bo’ladi. Germaniyada shakllangan mazkur tizim, aholiga malakali yuridik yordam ko’rsatilishi uchun nazariy va amaliy jihatdan yetarli darajada bilimga ega bo’lgan shaxslarnigina advokatlik faoliyati bilan shug’ullanishga ruxsat berishi barobarida aholining huquq va qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda o’z samarasini ko’rsatib kelmoqda.

Xitoy Xalq Respublikasida davlatning o’ziga xos bozor iqtisodiyotiga moslashgan sotsialistik ko’rinishi hamda mamlakatda yagona mafkura o’rnatilganligi advokatura institutining o’ziga xos shakli hamda huquqiy tartibga solishning ham takrorlanmas ko’rinish olishiga olib kelgan. XXRda advokatura ham davlat tomonidan nazorat qilinadigan instituti hisoblanib, mazkur funksiyani Davlat kengashi huzuridagi Yuridik bo’lim amalga oshiradi. Boshqa davlatlardan farqli ravishda Xitoyda 1996 yilda qabul qilingan “Advokatlarni va yuridik vakillik to’g’risida”gi qonunga ko’ra, nafaqat yuridik mutaxassislik bo’yicha o’rta yoki oliy yuridik ma’lumot, balki boshqa oliy ta’lim yurtini tamomlagan shaxslar ham imtihondan o’tsa, advokatlik litsenziyasiga ega bo’lishi mumkinligini ko’rishimiz mumkin. Bundan tashqari advokatlik guvohnomasiga ega bo’lib keyin 1 yillik stajirovka yoki advokat yordamchisi bo’lib bir yil ishlagan shaxslargina litsenziyaga talabgor

bo'lishlari mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Litsenziatlarga bir qator ta'qiqlar ham qo'yilgan bo'lib, advokatlik faoliyati davomida davlat organida ishlashi yoki vakillik organiga saylanishi mumkin emas. Bundan ko'zlangan maqsad esa, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziya olgan shaxs faqat mazkur faoliyat bilan shug'ullanishi hamda o'z ustida ishlashi lozimligini ko'rsatadi.

Finlandiyaning 1958-yildagi "Advokatura to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun Advokatlar Assotsiatsiyasining reestridan o'tgan bo'lishi lozim. Boshqa mamlakatlardan farqli ravishda Finlandiyada advokatlikka talabgor shaxs nafaqat davlat organlari tizimida balki xususiy sektorda ham mansab lavozimlarida ishlamasligi lozim. Bundan tashqari, talabgorga minimal yosh senzi belgilangan bo'lib, bu 25 yoshni tashkil etadi. Bundan tashqari talabgor sud tomonidan bankrot deb topilmagan bo'lishi lozim. Bu davlat tajribasi talabgor oldiga nafaqat shaxsning shaxsiy ko'nikmalari va hayot tarzi bilan bog'liq obyektiv talablarni balki iqtisodiy, ya'ni bankrot bo'lmaslik talabini ham qo'yadi.

2012 yilda Ukrainada qabul qilingan "Advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risida"gi qonunga muvofiq, quyidagi shaxslar sudlanganlik muddati o'tmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar; muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxslar va sudya, tergovchi, prokuror, surishtiruvchi, notarius, davlat organlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining mansabdorlari qasamyodini buzganligi, korrupsiyaviy jinoyat sodir etganligi tufayli ishdan ozod etilgan shaxslar 3 yil davomida advokat bo'la olmasligi belgilab qo'yilgan. Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgandan keyin 2 yillik yuridik stajga ega bo'lgan bo'lishlik, hamda davlat tilini qonunda belgilangan darajada bilishlik, malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirganlik advokatlikka qo'yilgan talablar hisoblanadi. Sudya, prokuror, tergovchi tomonidan korrupsiyaviy jinoyatlar tufayli mansab lavozimidan ketgandan keyin 3 yil davomida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishga davogarlik qilolmasligi korrupsion jinoyatlarni oldini olish bilan birga, advokaturani o'z sha'niga dog' tushirmagan kadrlarni saralab olishga ko'maklashishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari har uch oyda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat olgan shaxs tomonidan malaka imtihonidan o'tib turishlik majburiy talab hisoblanadi. Bu esa advokatlarni o'z ustida tinmay ishlashiga hamda aholiga malakali yuridik xizmat ko'rsatilishiga olib kelmoqda.

Yuqorida qayd etilgan normalardan, xususan, Yaponiya va

Germaniyaning ijobiy tajribasidan kelib chiqib, advokatura qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan quyidagi: litsenziyaga ega bo'lish uchun o'tkaziladigan malaka imtihonini ikki bosqichli, ya'ni birinchi bosqich talabgorlarning nazariy bilimlarini sinovdan o'tkazishga qaratilgan, ikkinchi bosqich talabgorlarning huquqni qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalarini aniqlashga qaratilgan tizimga o'tish taklifini berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu tizimni joriy qilinishi orqali advokaturani nafaqat son jihatdan balki sifat jihatdan ham yuqori darajaga olib chiqishga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, amaldagi qonunchiligimizda shaklangan malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshira olmagan talabgorlarni qayta imtihonga kirish uchun belgilangan 6 oylik muddatni, Yapon advokatura qonunchiligidagi kabi, muddatsiz etib belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi, bu esa o'z navbatida imtihondan o'ta olmagan talabgorlarga qisqa muddatda qayta topshirish imkonini berib, talabgorlarning boshqa sohaga o'tib ketishini oldini oladi. Mazkur qayta topshirishning muddatsiz shaklini belgilash orqali imtihonlarni tashkil qilish bilan bog'liq yuzaga keladigan sarf harajatlarni qoplash hamda imtihon sifatini yaxshilash maqsadida malaka imtihonining pullik tizimini joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ikkinchidan, Ukrainaning "Advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risida"gi qonunida aniq belgilab qo'yilganidek, advokatlik litsenziyasiga ega bo'lish uchun talab qilinadigan yuridik staj tushunchasiga qonunchilikda quyidagi mazmunda aniq ta'rif berish:

"Yuridik staj - bu oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgandan keyin mutaxassislik bo'yicha ishlangan davr" degan mazmunda belgilab qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish davomida olingan nazariy bilimlar bilan o'rta-maxsus yuridik ma'lumotga ega bo'lish davomida ega bo'lingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash davomida olingan tajribani taqqoslab bo'lmaydi.

Shuningdek, yetarli miqdorda yuridik stajga yoki 3 oydan kam bo'lmagan stajirovkani o'tagan talabgor qancha muddat ichida malaka imtihoni topshirishi lozimligini belgilab qo'yish, ya'ni advokatura qonunchiligiga *"stajirovka o'taganiga yoki oxirgi ish joyidan ketganiga 2 yildan oshmagan talabgorlarga malaka imtihonida qatnanishi mumkin"* degan mazmundagi normani kiritilishi talabgorlarning yuridik bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega holda malaka imtihoni topshirishini ta'minlashga imkon yaratadi.

Shu bilan bir qatorda, talabgor oldiga ham yuridik staj, ham stajirovka o'taganlik talabini bekor qilinishi advokatlarning sonini oshishiga ijobiy ta'sir o'tkazgan bo'lar edi, chunki har ikkala talab ham talabgorning amaliy ko'nikmalarga egaligi nuqtai nazaridan o'rnatilgan talab hisoblanadi hamda har ikkala talabni birdan qo'yilishi advokatlik litsenziyasiga ega bo'lish uchun talabgor oldiga sun'iy to'siq yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar inson huquqlari va ularning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarining himoyachisi bo'lsa, advokatura ularning kafolatidir. Shundan kelib chiqib, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyalash tartibini bekor qilinishi emas, balki litsenziya ega bo'lish uchun qo'yilgan talablarni aniqlashtirish yoki yuqorida tahlil etilgan xorijiy tajriba hamda bildirilgan takliflardan kelib chiqib, amaldagi qonunchilikni takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Норметова, Малика, and Жасур Неъматов. "Понятие и сущность юридической помощи. Статус и роль адвокатов при оказании юридической помощи." Общество и инновации 2.3/S (2021): 502-506.